

## Interaction of executive bodies with individuals and legal entities.

(M.X. Xaqberdiyev)

**Annotation:** This article focuses on the analysis of legal issues of relations between the executive authorities of the Republic of Uzbekistan and individuals and legal entities. The article also focuses on the legal description of the public administration bodies that make up the executive board and their relations with citizens and legal entities. At the same time, it is proposed to amend the Law of the Republic of Uzbekistan "On Appeals of Individuals and Legal Entities", which is the legal basis for individuals and legal entities to apply to these bodies. In addition, the article provides a detailed analysis of legal issues related to the concept of "e-government", as well as issues related to the implementation of "mobile reception" of heads of government agencies.

**Keywords:** individual, legal entity, e-government, application, plaintiff, "Development Strategy", local government, mobile reception, Ministry of Internal Affairs; Ministry of Emergency Situations, Ministry of Defense, National Guard, State Security Service, Ministry of Justice, Ministry of Foreign Affairs, Ministry of Finance, State Tax Committee, State Customs Committee.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘z lavozimiga kirishgan dastlabki kunlardanoq jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash – aholi turmush darajasini yuksaltirish, mamalakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xalq manfaatlarini qondirishga alohida e‘tibor qaratish, inson manfaatlarini har tomonlama ta‘minlash masalasini ilgari surdi. Shu bilan bir qatorda, Prezidentimiz quyidagi fikrni ta‘kidladi: “Fuqarolarning har qanday muammosini hal etish davlatning asosiy vazifalaridan biri ekanligini unutmishga hech kimning haqqi yo‘q. Shunday ekan, rahbarlar doimo xalq orasida bo‘lishi, shaxsiy qabullar o‘tkazishi, muammolarni joyida hal etishi zarur. Bundan buyon mahalliy rahbarlar faoliyati samaradorligi, birinchi navbatda, aholidan kelayotgan murojaatlar soni, mavjud muammolarning amaliy yechimi bilan baholanadi. Xulosa qilib aytganda, rahbarlarga xalqning o‘zi baho beradi”<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida chiqariladigan, qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy hayotga tatbiq etilishida davlatning maxsus vakolatli ijro etuvchi davlat boshqaruvi organlari ya‘ni ma‘muriy organlar bu vazifani amalga oshiradilar. Qaysiki sohani, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjat chiqarilsa, uni albatta ijrosini amalga oshirish ijro organlari tizimidagi tegishli sohaga aloqador, manfaatdor davlat boshqaruvi organining zimmasida bo‘ladi. Bu kabi davlatning boshqaruvi organlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibidagi vazirliklar, qo‘mitalar va boshqalarning o‘zlari va ularning boshqaruvidagi, ma‘muriyatchiligidagi viloyatlardagi boshqarmalari, tuman va shaharlardagi bo‘limlari orqali butun mamlakatda ijrochilik faoliyatini amalga oshiradi.

Bu kabi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi organlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2003-yildagi 9-dekabrda PF-3358-sonli Farmonida berilgan organlar: vazirliklar, davlat qo‘mitalari, qo‘mitalar, agentliklar,

<sup>1</sup> Tashkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi magistranti

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Vatan kelajagi yo‘lida yanada hamjihat, qat‘iy harakat qilish – davr talabidir. T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 57.

shuningdek ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi<sup>3</sup>.

Yuqorida berilgan davlat boshqaruvi organlari berilgan vakolatlari orqali butun davlat, jamiyat manfaatlarini ko'zlagan holda joylarda normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini amalga oshirar ekan ular albatta inson huquqlari va erkinliklariga, qonuniylikka va adolatlilik kabi huquqning umumiy prinsplariga rioya etadi. Va shu bilan birga bu organlar o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qiladi, ular faoliyatlariga qandaydir boshqa bir jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan yetkazilayotgan zarar, ta'sir choralarini aniqlagan holda ularga nisbatan huquqiy ta'sir choralar ko'rish orqali jamiyat, butun davlat manfaatlarini himoya qiladi.

Ijro organlarining bunday faoliyatlarini amalga oshiradigan paytida albatta jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan murojaatlar bo'lishi tabiiy holatdir. Bunday murojaatlar jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan murojaatlari ariza ko'rinishida, buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaatlari shikoyat ko'rinishida yoki biron bir takliflar kiritilishi shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bunday murojaatlar bilan albatta ijro organlari ularni zudlik bilan o'rganib chiqqan holda qonuniy va adolatli harakatlarni amalga oshirishi yoki adolatli va qonuniy hujjat chiqarishi kerak bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan kuchga kirgan Harakatlar strategiyasining mantiqiy va uzviy davomi bo'lgan "Taraqqiyot strategiyasi"ning belgilab berilgan maqsadlarida ham boshqaruv organlari faoliyatlariga bag'ishlanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Taraqqiyot strategiyasining 4-maqsadida "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish, vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo'nalishlarini "Davlat — xalq xizmatchisi" tamoyili asosida fuqaroga xizmat qilishga yo'naltirish"<sup>4</sup>, deb belgilab berilishi ham bejiz emas albatta.

Fuqarolarning davlat organlariga murojaatlar bilan chiqishi ularning konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi. Xususan, bu konstitutsiyaning 35-moddasida berilgan norma hisoblanadi. normaning mazmuni shunday: "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega"<sup>5</sup>.

Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga qiladigan bunday murojaatlari qonun darajasida o'rnatilgan. Bu qonun "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"<sup>6</sup>gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2017-yil 11-sentabr O'RQ-445-son bilan qabul qilingan.

Yuqoridagi qonun asosida jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlari va tashkilotlariga o'z vakolatlari doirasida hal qiladigan organlarga murojaatlar bilan chiqishi mumkin. Bunday murojaatlarni asossiz rad etilishi ijro organlariga nisbatan javobgarlik keltirib chiqaradi.

<sup>3</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 16.07.2021-y., 06/21/6262/0680-son, 23.08.2021-y., 06/21/6280/0811-son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son.

<sup>4</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

<sup>5</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son; 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son.

<sup>6</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

Hokim shikoyat yoki taklif bilan chiqishni xohlovchi fuqarolar uchun doimiy ish vaqtini o'tkazadi. Mahalliy Kengash deputatlari ham o'z saylov okruglari bilan uchrashuvlarda fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqadi va bu borada joylarda aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari hududda davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni tashkil etishga ko'maklashadilar. Hokimliklar korxonalarini ro'yxatdan o'tkazadilar, xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilishiga ko'maklashadilar, hududni rivojlantirish yoki aholi foydalanishi uchun mahsulot sotish va sotib olish to'g'risida shartnomalar tuzadilar. Mahalliy hukumatlar foyda solig'i o'rniga natura ko'rinishidagi xizmatlar yoki to'lovlarni qabul qilishga ham rozi bo'lishi mumkin.

“Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida”<sup>7</sup>gi namunaviy nizom qabul qilingan bo'lib, u jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari bilan munosabatlarga kirishishining huquqiy asosi vazifasini bajaradi. Ushbu nizom Vazirlar Mahkamasining 341-son Qarori bilan 2018-yil 7-may kuni tasdiqlangan.

Ushbu yuqoridagi Vazirlar Mahkamasining tasdiqlagan namunaviy nizomiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda 1061-sonli Qarori bilan bir nechta qo'shimchalar kiritiladi. Bularga misol qilib Nizomning 3-bandida berilgan asosiy tushunchalarga 12-xatboshi bilan “sayyor qabul” tushunchasi bilan boyitiladi<sup>8</sup>.

Sayyor qabul tushunchasining mazmuni bu sayyor qabul — davlat organlari va davlat tashkilotlari rahbarlarining tasdiqlangan jadval asosida joylarga chiqqan holda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishi bilan bog'liq tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar majmui sifatida tushunish kerak.

Bunday qo'shimcha kiritilishi ya'ni sayyor qabul institutining kiritilishi ijobiy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz. Negaki, sayyor qabul o'tkazilishi davlat organi rahbarining joylarga chiqqan holda haqiqiy ahvol qandayligini, muammolarni o'z kabinetida turib ko'rmasdan eshtishidan ko'ra o'zi shaxsan borib bu jarayonlar bilan tanishishi va fuqarolar va yuridik shaxslarning dardi va ahvolidan boxabar bo'lishi tabiiy ravishda ijobiy ahamiyat kasb etishi turgan gap.

Jismoniy va yuridik shaxslarning davlatning ijro etuvchi ma'muriy organlari bilan amalga oshiradigan munosabatlari bevosita jismoniy yoki yuridik shaxslarning qiladigan murojaatlari orqali yuzaga keladi. Bunday jarayonning yuzaga kelishining bir nechta tartib-qoidalaridir. Bunday tartib qoidalar quyidagicha:

**birinchidan**, murojaatlarni manfaatdor shaxslar tomonidan tayyorlab tegishli ijro organiga kiritish;

**ikkinchidan**, ijro organidagi murojaatlar bilan ishlaydigan mas'ul xodim tomonidan murojaatlarni qabul qilib olib ularni murojaatlar daftariga qayd etib qo'yishi;

**uchinchidan**, murojaatlarni hal qilish vakolati berilgan davlatning ijro organi rahbariga ko'rib chiqish uchun yuborish;

**to'rtinchidan**, murojaat hal qilish vakolati mavjud bo'lmagan organga kiritilganida uni tegishli organga yuborgan holda ushbu murojaat qilgan manfaatdor shaxsni ogohlantirib qo'yish;

**beshinchidan**, murojaatni ijro organi hal qilishi uchun yana qo'shimcha ma'lumotlar asosida chuqurroq o'rganishni talab qilgan hollarda vaqtni uzaytirib manfaatdor shaxsni bu haqida ogohlantirib qo'yishi.

<sup>7</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018-y., 09/18/341/1202-son; 31.12.2018-y., 09/18/1061/2406-son, 14.05.2019-y., 09/19/397/3123-son; 21.12.2019-y., 09/19/1022/4181-son.

<sup>8</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2018-y., 09/18/1061/2406-son.

Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda joylardagi ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyati maxsus ishlab chiqilgan va normativ-huquqiy asosi sifatida 2018-yilga qadar Vazirlar Mahkamasining 73-sonli “Namunaviy nizomi”, ayni vaqtda esa 341-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Namunaviy nizom” mazkur sohaga oid muammolarni, hokimiyat va mahalliy huquqiy hujjatlar uchun shuningdek zamonaviy sharoitlarda murojaat etuvchi fuqarolarni konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan faoliyat uchun namuna bo’lib hisoblanadi<sup>9</sup>.

Manfaatdor shaxslar ya’ni jismoniy va yuridik shaxslar va davlatning joylardagi ijro etuvchi organlari o’rtasidagi munosabatlar ularning davlat organlariga qilgan murojaatlari asosida amalga oshiriladi va bu munosabatlar ma’muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirib chiqaradi.

Manfaatdor shaxslar va ma’muriy organlar o’rtasidagi litsenziya berishni so’rab qilingan murojaatlar, ruxsat berish bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar, ro’yxatdan o’tkazish bilan va davlat xizmatlarini ko’rsatilishi bilan bog’liq bo’lgan munosabatlarda davlatning ijro organlari va jismoniy va yuridik shaxslar o’rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar ma’muriy tartib-taomillar doirasida amalga oshiriladi.

Bunday huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos qilib jismoniy va yuridik shaxslarning davlatning ijro organlariga qiladigan ariza va murojaatlari asosida vujudga keladi.

Ma’muriy organga beriladigan arizada quyidagi ma’lumotlar ko’rsatilgan bo’lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan ma’muriy organning nomi;
- 2) da’vogar – jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning yashash joyi; agar arizachi yuridik shaxs bo’lsa, uning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo’lsa, vakilning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va manzili;
- 3) arizachining talabi;
- 4) arizaga ilova qilinadigan hujjatlarning ro’yxati (agar bunday hujjatlar mavjud bo’lsa);
- 5) ariza berilgan sana<sup>10</sup>.

Yuqoridagi talablarni bajargan arizachi yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan ariza imzolanadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning ijro organlariga qiladigan murojatlari faqat qog’oz shaklida balki, elektron va og’zaki shaklda ham murojaat qilishlari mumkin. Ularning shaklidan qat’i nazar bir xil yuridik kuchga ega va bir xildagi huquqiy oqibat keltirib chiqaradi.

Har qanday davlatda O‘zbekiston Respublikasida bo’lgani kabi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning va davlat rahbarining topshiriqlarining ijro qilinishi masalalari bilan davlatning maxsus vakolatga ega bo’lgan muayyan davlat hokimiyati tarkibini tashkil etadigan ommaviy hokimiyat organlari tizimi mavjud. Bunday ijro organlari faoliyati o’zining maxsus qonunchilik hujjati asosida faoliyat yuritishi tabiiydir. Bu organlarga ma’lum bir masalada jismoniy yoki yuridik shaxslarning ariza yoki shikoyatlar berilishi natijasida bu organlar bilan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Va shuningdek, bu organlarga murojaat qilish masalalari fuqarolarning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan huquqlaridan bo’lishi ham mumkin. Bu kabi munosabatlar ko’pgina xorij mamalakatlarining konstitutsiyalarida mustahkamlanganligini ko’rishimiz mumkin.

<sup>9</sup> Yusupov S. B. Davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxs murojaatlari bilan ishlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. yuridik fan. falsafa doktori diss. TDYU. Toshkent, 2018. – B. – 62.

<sup>10</sup> Muratayev S.A., Musayev B.T, Artikov D.R.. Ma’muriy huquq va. protsses. Toshkent: “Innovatsiya Ziyoy”, 2020. – B. – 334.

Yuqoridagi fikrga misol tarzida, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 34-moddasida “Rossiya Federatsiyasi fuqarolari shaxsan o‘zi yoki jamoaviy tarzda davlat organlariga va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilish huquqiga ega”<sup>11</sup>, degan qoidani aytishimiz mumkin.

Bu qoida Rossiya Federatsiyasida konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun ham konstitutsiyaviy huquqi ekanligini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida mustahkamlanganini aytishimiz o‘rinli.

Rossiya Federatsiyasining 2006-yil 2-maydagi “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 59-sonli FQning 11-moddasi “Murojaatlarni ko‘rib chiqishning alohida tartibi” deb nomlangan. Unda quyidagicha norma bayon etiladi: “Agar yozma murojaatda uni yuborgan fuqaroning familiyasi yoki pochta manzili ko‘rsatilmagan bo‘lsa, murojaatga javob berilmaydi. Agar ushbu murojaatda tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarlik to‘g‘risidagi yoki uni tayyorlayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘lsa, yozma murojaat davlat organiga tegishli tartibda yuborilishi kerak”<sup>12</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 12-sentabrdagi 445-sonli “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasi “Murojaatlarni ko‘rmasdan qoldirish” deb ataladi. Unda shunday qoida beriladi: “Quyidagi murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi: “anonim murojaatlar” va “jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlarularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda”<sup>13</sup>, ko‘rib chiqilmasligi qoidasi berilgan.

Yuqoridagi ikkita davlatning qonunidagi normalardagi qisman farq borligi seziladi. Negaki Rossiya Federatsiyasi qonunida anonim murojaatlar ko‘rib chiqilmasligi aytiladi. Lekin normada istisno qoida ham bor bo‘lib, ya‘ni unga ko‘ra murojaatda huquqbuzarliklar, jinoyatlar sodir etilishiga tayyorgarlik ko‘rilayotgani, jinoyatni tashkil qilayotgan shaxs haqida bo‘lganda bu murojaat tegishli vakolatga ega bo‘lgan organga yuboriladi. Ammo, O‘zbekiston Respublikasining qonunida bunaqa istisno qoida yo‘qligi bu ularning farqli jihatini ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, biz mazkur qonunning ushbu moddasiga ham istisno hollarida anonim murojaatni ko‘rgan holda huquqbuzarlik sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilayotgani yoki uni tayyorlayotgan shaxslar haqida bo‘lganida tegishli davlat organlariga jo‘natish kerakligi to‘g‘risidagi qoida kiritish kerak degan taklif beriladi. Bu taklifimizning sababi qilib shuni aytishimiz kerakki, bunday vaziyatlarda murojaat etgan shaxs o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini ko‘rsatgan holda murojaat yo‘llashi o‘zi va oila a‘zolari uchun katta xavf keltirib chiqaruvchi sababga aylanishi mumkin.

Hozirgi kunda aksariyat xorijiy davlatlar “elektron hukumat” sohasidagi faoliyatga davlatni va uning organlarini moslashtirishni o‘z siyosatining bosh mezoni sifatida qaramoqda. Shunday ekan, bugungi kunda O‘zbekistonda ham bu jarayon jadallik bilan amalga oshirib kelinayotganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Va shuni aytish kerakki, hozirda O‘zbekistonda davlat xizmatlarining hukumat portal joriy qilingan va muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda<sup>14</sup>.

Davlatning ijro organlari va ularning mansabdor shaxslarining javobgarligi masalasi ularning jismoniy va yuridik shaxslar bilan hamda ularning qilgan murojaatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

<sup>11</sup> Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi.

<sup>12</sup> Gritchina, N. Improving the organization of work with citizens' appeals in government bodies of government. Improving the work with citizens' appeals in the executive bodies of local self-government (for example, the Administration of the Ust-Katavsky city ok.

<sup>13</sup> Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda “Interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 378-son qarori.

Darhaqiqat, murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqib, unga munosib yechim berish orqali jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga bo'lgan ishonchining ortishiga va ularning rozi bo'lishlariga sabab bo'ladi.

Ijro organlari bilan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlar murojaat yo'llashdan tortib to uning yechim topishi yoki murojaat qanoatlantirilmay rad etilishigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladigan hodisadir.

Mamlakatimizda tinchlikni va fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashga safarbar etilgan bir qator davlat boshqaruvi organlari va davlat xizmatchilari faoliyat yuritadi. Bular:

1. Ichki ishlar vazirligi;
2. Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
3. Mudofaa vazirligi;
4. Milliy gvardiya;
5. Davlat xavfsizlik xizmati;
6. Adliya vazirligi;
7. Tashqi ishlar vazirligi<sup>15</sup>.

Biz yuqoridagi davlatning ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni vujudga kelishining sabablari va ularning huquqiy oqibatlarini batafsil yoritishga harakat qilamiz.

Masalan, jismoniy shaxs ya'ni fuqaro davlatning ichki ishlar organiga ishga kirish istagi paydo bo'ldi. Bunda fuqaro barcha tibbiy va boshqa harbiy xizmatni o'taganlik va boshqalarni amalga oshirgan bo'lsa, undan keyin uning o'z hududidagi ichki ishlar boshqarmasi boshlig'iga ariza bilan murojaat qilishi orqali uning davlat organi bilan ma'muriy-huquqiy munosabatga kirishishiga olib keladi. Va bu murojaat natijasida ma'muriy organ fuqaroning shaxsi va zarur hujjatlari bilan dastlabki tanishishi va uning hamma zarur hujjatlari borligiga amin bo'lganidan keyin uni maxsus tanlov asosida saralab oladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari border. Bu faoliyat bilan quyidagilar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi;
- 3) O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo'mitasi

faoliyatini amalga oshiradigan davlatning maxsus vakolatli organlaridir.

Bunda Davlat soliq qo'mitasining faoliyatini tahlil qilsak. Bu organ Vazirlar Mahkamasidagi qo'mita maqomidagi davlat boshqaruvi organi bo'lib, uning viloyatlarda boshqarmalari va tuman, shaharlardagi inspeksiyalari orqali faoliyatini amalga oshiradi.

---

<sup>15</sup> Muratayev S.A., Musayev B.T., Artikov D.R.. Ma'muriy huquq va. protsses. Toshkent: "Innovatsiya Ziyo", 2020. – B. – 206.

Bu organning yuridik shaxslar bilan munosabat o'rnatishiga misol tariqasida bu organning boshqarma yoki inspeksiyalari orqali yuridik shaxs sifatidagi tadbirkorlik subyektlaridan soliqlar undirishi va ular faoliyatlarida soliq tekshiruvlarini o'tkazish orqali nazorat qilishlarida ko'rinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijro etuvchi hokimiyatlar davlatning ijtimoiy hayotida eng kerakli organlar tizimidir. Negaki, qabul qilinadigan qonunlar va boshqa hujjatlar, islohotlar hammasining amalga oshishida ijro organlarining o'rni beqiyosdir. Bu organlarda juda katta moliyaviy, kadrlar soni jihatdan va juda katta davlat-hokimiyat vakolati berilgani uchun ham bu organlarning faoliyati ijro etish funksiyasini to'laqonli amalga oshirishining kafili hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 76 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Vatan kelajagi yo'lida yanada hamjihat, qat'iy harakat qilish – davr talabidir. T.: O'zbekiston, 2017.
3. Muratayev S.A., Musayev B.T, Artikov D.R.. Ma'muriy huquq va. protsses. Toshkent: "Innovatsiya Ziyo", 2020. – B. – 416.
4. Yusupov S. B. Davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxs murojaatlari bilan ishlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. yuridik fan. falsafa doktori diss. TDYU. Toshkent, 2018. – B. – 177.
5. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 378-son qarorini
7. O'zbekiston Respublikasining "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni.
8. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi.
9. Gritchina, N. Improving the organization of work with citizens' appeals in government bodies of government. Improving the work with citizens' appeals in the executive bodies of local self-government (for example, the Administration of the Ust-Katavsky city ok.